

Mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari

Asrorov Uchqun Akram O'g'li

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti magistri

Annotatsiya: Maqola bugungi kundagi Respublikamiz oldida turgan dolzarb masalalarni yechimini topishga qaratilgan “Mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida tadbirkorlikni” rivojlantirish bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlar, innovatsion jarayonlarda uni qo'llash yo'nalishlarini, hamda xorij tajribasiga asoslangan holda davlatimizning iqtisodiy rivojlanishini yangi yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Raqamli tadbirkorlik, Innovatsiya, Virtual muhit, Raqamli texnologiyalar, Raqamli xizmat ko'rsatish, Innovatsion tadbirkorlik, Tadbirkorlik subektlari.

Mavzuning dolzarbligi:

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholi turmush tarzini rivojlantirish kun tartibida turgan muhim masalaga aylanib bormoqda. O'zbekistonda ijtimoiy himoya siyosatining kuchaytirilishi va hududlarning iqtisodiy rivojiga katta hissa qo'shgan jihat shuki, mamlakat Prezidentining har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman hokimining yordamchisi lavozimini joriy etish haqidagi tashabbusi bo'ldi. Shuningdek, 2022 yil 21 dekabrdagi “Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Farmoni bilan kambag'allikni qisqartirishga mas'ul bo'lgan barcha idoralar bitta samarali va kompleks tizim — Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligiga birlashtirildi. Umuman, respublikada kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilayotgan maqsadli va samarali siyosat Yangi O'zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida barpo etish jarayonida o'zining yuqori samaradorligini namoyon etmoqda. Huddi shuningdek raqamli iqtisodiyot davrida tadbirkorlikni rivojlantirishda muammolarning korrupsiyasiz hal qilinishi hamda tadbirkorlarimizga yangidan yangi qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etilishini ko'rishimiz mumkin.

Shuni qayd etish lozimki,pandemiya davrida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 ga yaqin farmon va qarori qabul qilindi.Ushbu farmon va qarorlar bilan tadbirkorlikni va xizmat ko'rsatish sohalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida xuquqiy iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlar yaratildi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo'yicha harajatlar strategiyasi to'g'risi”dagi PF-4947-somli farmoni,2018-yil 7-iyundagi “Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to'g'risida”gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruving 2018-yil 9-iyundagi “Har bir oila-tadbirkor” dasturi doirasida kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.Bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi. Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) lavozimi joriy qilindi.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-NOYABR, 2024

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yilib, unga 200 milliard so'm va 50 million dollar mablag' ajratildi.¹ Quyidagi 2.9 jadvalda esa so'ngi yillarda Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, yangi tashkil etilgan korxonalar hamda kichik tadbirkorlik subyektlari soni Samarqand viloyati statistikasi qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalanib keltirib o'tilgan.

2.9-jadval

Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

Nº	Yillar	Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni	Samarqand viloyatida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni	Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni
1	2019	25066	8365	19629
2	2020	31354	8828	25643
3	2021	38946	11063	33114
4	2022	46667	10877	40724
5	2023	54163	7771	47943

2.9 rasmdan shuni aytish mumkinki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni so'ngi 5 yilda 2.5 martadan ko'proq oshgan. Huddi shunga o'xshash yangi tashkil etilgan korxonalar soni ham ohirgi 5 yil mobaynida deyarli 61 % ga ortganini ko'rish mumkin. Samarqand viloyati Respublikada kichik tadbirkorlik subyektlarining ortib borishi borasida yetakchilar qatorida hisoblanadi. Buni isboti o'laroq so'ngi 5 yilda viloyatda kichik tadbirkorlik subyektlari soni deyarli 3 marta ortganini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlarini bosqichma-bosqich, tizimli va uzlusiz ravishda takomillashtirib borish orqali quyidagilarga erishish mumkin.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini tarmoqlarini,jumladan xususiy tadbirkorlikni raqamlashtirilgan usulda boshqarish va rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qo'yilgan eng dolzarb vazifalardan biridir.Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakatimiz fuqarolarining turmush farovonligini oshirish,kambag'allikni kamaytirish,iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muhim shartidir.Bugungi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda aholi daromatlarining o'sishi birinchi navbatda tadbirkorlikda innovatsion jarayonlarning to'g'ri tashkil etilishi hamda raqamli tadbirkorlikni doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgani bilan bog'liqidir.Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida respublikamiz oldida turgan muhim vazifalardan biri jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni keng yo'lga qo'yishdir.bugungi kunda asosiy vazifalardan biri tadbirkorlar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali narxlarni pasaytirish va jahon bozorida raqobatbardosh eksportbop sifatli

2.Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi tizim joriy etish to'g'risidagi president qarori 2022.10.03

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-NOYABR, 2024

mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Xalqaro tajribani o'rgangan holda monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yanada keng yo'l ochish "raqamli tadbirkorlikni" rivojlantirish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Toshkent. 2016., 15-bet
2. Yuldashev D.T. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Dic ... i.f. bo'yicha falcafa doktori (PhD). – T., 2019;
3. G'oyipnazarov C.B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnatni muhofaza qilishning ilmiy acoclarini takomillashtirish. Dic. ... i.f. bo'yicha falcafa doktori (PhD). – T.
4. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: Moliya. 2002.
5. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizastiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2007.

Internet saytlari:

1. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portalı.
2. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti
3. <https://mehnat.uz/uz/news/2019>
4. www.ziyonet.uz - bilimlar sayti;